

YURIDIKM TERMINLARINING YASALISH XUSUSIYATLAR: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA

Hamroqulova Ruxshona Ilhom qizi

Samarqand davlat chet tillar institute Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi

Mannobova Lola Abdunazar qizi

Ilmiy rahbar: Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Yuridik sohasida qo'llaniladigan terminlar o'zining emotsionallik va ekspressivlikdan yiroqligi bilan boshqa sohalaridagi atamalardan farq qiladi. Ushbu maqolada yuridik sohada keng qo'llaniladigan atamalarining yasallish usullari ikki til misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu maqola huquq sohasida ishlatiladigan atamalarining tuzilishi, ularning shakllanish usullari hamda ushbu jarayonidagi o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, zamonaviy yuridik terminlarni asl ma'nosini tushuntirish va ularning ingliz tilidagi ekvivalentlari bilan strukturaviy va semantik jihatidan ham taqqoslaydi.*

Kalit so'zlar: *huquq, termin, terminologiya, tuzilma, qiyosiy tahlil, komponent, affiksatsiya, affiks, suffiks, qisqartma, semantik, ma'no.*

Abstract: *The terms used in the legal field might vary from those in other areas by their lack of emotionality and expressiveness. This article provides a comparative analysis of the term-formation methods of widely used legal terms in two languages. This article is aimed at studying the structure of terms used in the field of law, their formation methods, and the changes that occur during this process. It also explains the original meanings of modern legal terms and compares them with their English equivalents both structurally and semantically.*

Keywords: *law, term, terminology, structure, comparative analysis, component, affixation, affix, suffix, abbreviation, semantic, meaning.*

Аннотация: *Термины, используемые в юридической сфере, отличаются от терминов других областей своей эмоциональной и экспрессивной сдержанностью. В данной статье представлен сравнительный анализ методов термообразования широко используемых юридических терминов в двух языках. Цель статьи – изучить структуру терминов, используемых в области права, методы их образования и изменения, происходящие в ходе этого процесса. Кроме того, в ней объясняется первоначальное значение современных юридических терминов и проводится их сравнение с английскими эквивалентами как по структуре, так и по семантике.*

Ключевые слова: *право, термин, терминология, структура, сравнительный анализ, компонент, аффиксация, аффикс, суффикс, аббревиатура, семантический, значение.*

KIRISH

Hozirgi zamonaviy dunyoda sud-huquq tizimi izchil takomillashib, yildan yilga modernizatsiyalashib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, mazkur sohada qo'llaniladigan

huquqiy terminlarni ilmiy jihatdan to'g'ri anglash, aniq talqin qilish hamda amaliyotda o'rinli qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi. Yuridik terminlarni tahlil qilishdan avval, avvalo, "termin" tushunchasining mazmun-mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Lug'aviy manosi ko'ra termin grekcha "terminus" so'zidan olingan bolib, chek, chegara degan manoni bildiradi va u malum bir sohaga oid sozlarni qisqa va londa, hammaga tushunarli tarzda yetkazish uchun xizmat qiladi. Masalan, bank, kredit, plastik karta kabi terminlar iqtisodiyotga taalluqli bolsa, maqola, tezis, iqtibos kabi terminlar ilmiy faoliyatga ishora qiladi. Diagnostika, anesteziya, rengen kabi terminlar tibbiy sohaga oid bolsa, turist, tur paket, tur operator, gid-tarjimon kabi zamonaviy biroq hozirgi kunda eng aktual sohalardan biri bolgan turizm terminlari sanaladi[12]. "Termin" tushunchani umumiste'moldagi so'zdan farqlash uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

1. Termin – umumadabiy tilning faqat maxsus odamlargina ishlatadigan biror bir kichik guruh uchun tanish bolgan so'zlar hisoblanadi. Masalan: ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki so'z birikmalari tushuniladi;

2. Termin stilistik jihatdan neytraldir;

3. Termin bu aniq, nominativ funksiyaga ega bolib, emotsionallik, ekspessivlik xususiyatiga mos emas;

4. Terminning manosi tushunchaga tengdir.

Termin bilan umumadabiy til birliklarini o'zaro farqlash masalasini yoritishda, avvalo, ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy qarashlari va nazariy yondashuvlariga murojaat qilish zarur. Terminologiya mutlaqo yangi soha bo'lmasa-da, "termin" tushunchasining mazmuni yuzasidan ilmiy manbalarda turli xil fikr va mulohazalar ilgari surilgan.

Jumladan, O. Vinokum ta'kidlashicha, termin doimo aniq, ravshan va bir ma'noli bo'lishi lozim. Unga ko'ra, terminlar tizimi ongli ravishda shakllantiriladi, ya'ni terminlar tasodifan yuzaga kelmaydi, balki jamiyat ehtiyoji hamda muayyan zarurat natijasida yaratiladi.

O'zbek tilshunos olimi A. Hojiyev esa terminni fan, texnika yoki boshqa maxsus sohalarga oid tushunchalarni aniq ifodalovchi, qo'llanish doirasi aynan shu sohalar bilan cheklangan so'z yoki so'z birikmasi sifatida izohlaydi. Tilshunos olim Sh.Ko'chimov ta'kidlaganidek, "Aytish mumkinki, barcha terminlar so'zdir, lekin hamma so'zlar ham termin bo'lavermaydi" deb aytib o'tgan.

Yuridik termin haqida tilshunos olim Sh.Ko'chimov: "Shunday qilib, yuridik termin – ma'lum bir yuridik tushunchaning tashqi ko'rinishi, nomlanishi bo'lib, mantiqiy jihatdan bir huquqiy ma'noni ifodalovchi va uslubiy jihatdan neytral bo'lgan so'z yoki so'zlar birikmasidir", - deb ta'rif beradi. Shunday qilib, yuridik terminlar deyilganida, odatda;

o'zbek tilida: sud, hokimiyat, jinoyat, qonun, sudya, shartnoma, yurist

ingliz tilida: court, government, crime, law, judge, contract, lawyer

kabi bitta so'zdan tashkil topgan terminlar nazarda tutiladi. Shu bilan birga, yuridik terminlar bir nechta so'zdan iborat bo'lishi ham mumkin; ular ikki, uch yoki hatto to'rt so'zdan tarkib topgan murakkab terminlar sifatida paydo bo'ladi. Masalan:

fuqarolik javobgarligi- Civil liability", "ijro etuvchi hokimiyat organi- Executive authority", "ma'muriy huquqbuzarlik kodeksi- Code of Administrative Offenses" kabi birikmalar bunday murakkab yuridik terminlarga misol bo'la oladi.

Yuridik terminlarining xususiyatlari

Yuridik termin – bu huquqiy tushunchani aniq va ravshan ifodalovchi maxsus leksik birlik bo‘lib, u umumiy so‘zlardan morfologik, semantik va funksional xususiyatlar orqali ajralib turadi [3].

Yuridik terminlarning asosiy xususiyatlari:

1. Aniqlik va mantiqiylik – termin ma‘nosi tushunarli va noaniq bo‘lmasligi, huquqiy kontseptlarni aniq ifodalay olishi kerak.

2. Bir ma‘nolilik (monosemiklik) – har bir termin faqat bitta maxsus huquqiy tushunchani bildiradi.

3. Standartlashganlik – termin huquqiy matnlarda va rasmiy hujjatlarda doimiy va bir xil shaklda qo‘llaniladi.

4. Rasmiy uslubga mansublik – yuridik terminlar asosan rasmiy-huquqiy kontekstda ishlatiladi va kundalik nutqda kam uchraydi[3]

5. Masalan, ingliz tilidagi “law”, “court”, “judge” terminlari o‘zbek tilida mos ravishda “qonun”, “sud”, “sudya” shaklida ifodalanadi va ularda yuqoridagi xususiyatlar saqlanadi.

Yuridik terminlarning yasash usullari . Terminologiya fanida terminlar yasashi tilning leksik imkoniyatlari va mavzu sohasi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Yuridik terminlari asosan quyidagi usullar orqali yasaldi;

Morfologik usul. Ushu bu usul mavjud bo‘lgan leksik birlikka so‘z yasovchi qo‘shimchalar ya‘ni affiksalar (prefiks va saffiksalar) orqali yangi termin hosil qilish usuli hisoblanadi.

Ingliz tiida bu jarayon asosan prefiksatsiya va saffiksatsiya orqali amalga oshadi, masalan:

Legal→ legality ; root+ suffix

Lawful→ unlawful; prefix+ root

Judge→ judgment; root+ suffix

O‘zbek tilida bu jarayon ko‘p hollarda saffiksatsiya yo‘li bilan hosil qilinadi va bu tilning agglutinatativ tuzilishga ega ekanligi sababli sodir bo‘ladi.

Qonun→ qonuniy; asos+saffiks

Ayb→ aydor; asos+saffiks

Sud→sudya; asos+saffiks

Sintaktik(kompozitsion) usul. Yuridik fanlari nomzodi G.G‘ulomova fikricha, yuridik terminlar ularning tuzilishiga ko‘ra sodda va murakkab turlarga bo‘linadi. Ya‘ni, ular bir komponentli, ikki komponentli va ko‘p komponentli terminlar sifatida tasniflanadi.

Bir komponentli yuridik terminlar faqat bitta so‘zdan iborat bo‘lib, ko‘pincha umumiy huquqiy tushunchalarni ifodalaydi. Masalan:

qoida-rule, ariza-application, qaror-decision, undirish-enforcement, apellyatsiya-appeal, kassatsiya-cassation, dublikat-duplicate, shikoyat-complaint, jazo-punishment, ekspertiza-examination, imigratsiya-immigration, litsenziya-licence.

Ikki komponentli yuridik terminlar ikki mustaqil so‘zning birikishidan hosil bo‘ladi hamda ular odatda turli grammatik modellarga asoslanib shakllanadi. Bunday terminlar huquqiy tushunchani aniqroq ifodalash uchun ikki leksik birlikning o‘zaro bog‘lanishi natijasida yuzaga keladi. Mazkur turkumga kiruvchi terminlarga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin:

davlat xizmati – public service, qonunchilik hujjatlari – legislative documents, xalqaro shartnomalar- international treaties, mansabdor shaxslar – public officials, majburiy to'lovlar- mandatory payments, uy qamog'i - home confinement.

Ko'p komponentli yuridik terminlar esa uch yoki undan ortiq so'zlardan iborat bo'lib, ular o'z navbatida uch komponentli, to'rt komponentli va besh va undan ortiq komponentli turlarga bo'linadi. Masalan:

davlat xizmatlari tizimi → public interest law

jinoyat adliya tizimi → criminal justice system

Semantik usul. Terminlar yasallashining yana bir usullaridan biri semantik usul hisoblanadi. Semantik yasallash yoki terminlarni semantik shakllantirish – bu mavjud so'z yoki so'z birikmasining ma'nosi o'zgarishi, torayishi yoki kengayishi natijasida yangi terminologik birlik hosil bo'lish jarayoni sifatida aniqlanadi[2]. Bu jarayon ko'pincha oddiy lug'aviy birliklar yoki umumiste'mol so'zlar maxsus kontseptlarni ifodalovchi terminlarga aylanganda yuz beradi. Terminologik kontekstda semantik yasallash terminning ma'nosini qayta belgilash yoki kontseptual doiralarni toraytirish bilan xarakterlanadi. Ushbu hodisa ko'pincha terminologizatsiya deb ataladi – ya'ni so'zning umumiy lug'at ma'nosidan mutaxassis tilida aniq va standart termin ma'nosiga o'tishi hisoblanadi [superska].

V.M. Leichik terminologizatsiya jarayonini quyidagicha tushuntiradi: “Terminologizatsiya – bu umumtil so'zining ma'nosini toraytirish yoki qayta ixtisoslashtirish orqali uning terminologik birlikka aylanish jarayonidir.”

Ma'noning torayishi. So'zning umumiy ma'nosi torayib, terminologik birlik sifatida aniq kontseptni ifodalaydi.

Inglizcha termin	O'zbekcha termin	Semantik o'zgarish
Court	Sud	Umumiste'mol “court” (mahkama, majlis) so'zi yuridik kontekstda faqat “sud organi” ma'nosini oladi.
Sentence	Hukm	Umumiy ma'nodagi “sentence” (gap, jumla) yuridik kontekstda “sud tomonidan berilgan jazo hukmi” ma'nosini oladi.
Appeal	Appelatsiya	Oddiy “appeal” (iltimos, murojaat) so'zi sud kontekstida “sud qaroriga shikoyat” ma'nosiga torayadi.

Ma'noning kengayishi. So'zning asosiy ma'nosi kengayib, yangi terminologik birlikka aylanishi.

Inglizcha termin	O'zbekcha termin	Semantik o'zgarish
Party	Tomon	“Party” umumiste'molda “tadbir ishtirokchisi” ma'nosida bo'lsa, yuridik kontekstda shartnoma tomonlari sifatida ishlatiladi.
Law	Qonun	“Law” keng ma'noda “qonun, tartib-qoidalar” bo'lsa, yuridik kontekstda “rasmiy qabul qilingan qonun” ma'nosida termin sifatida ishlatiladi.

Reterminologizatsiya.

Reterminologizatsiya – so'z avvaldan termin bo'lgan, boshqa sohalarda foydalanilgan yoki yangi fan kontekstiga mos keladigan ma'noni oladi.

Bu jarayon natijasida soʻz asl lugʻat maʼnosi bilan termin maʼnosi orasida farq yuzaga keladi.

Inglizcha termin	Oʻzbekcha termin	Semanik oʻzgarish
Claim	Daʼvo	Oddiy “claim” (daʼvo, talab) soʻzi yuridik matnda “sudga berilgan daʼvo” maʼnosini bildiradi.
Charge	Ayblov	“Charge” avval umumiy “maʼlumot berish” maʼnosida ishlatilgan, yuridik kontekstda “jinoyat boʻyicha rasmiy ayblov” maʼnosini oladi.

Qarz olish yoʻli bilan yuridik terminlar hosil qilish. Yuridik terminologiyada qarz olish (borrowing) — bu boshqa tillardan soʻzlarni oʻzlashtirish orqali yangi terminologik birliklar yaratish jarayoni sifatida aniqlanadi. Bu jarayon terminlarning leksik boyligini oshirish, yangi kontseptlarni ifodalash va huquqiy sohada standartlashtirish imkonini beradi[3].

Ingliz tili asosan yuridik terminlarning katta qismini lotin va fransuz tillaridan oʻzlashtirgan. Misol uchun ingliz tilidagi “attorney” huquqiy termini lotincha “attornare” soʻzing oʻzlashgani boʻlib oʻzbek tilida vakil, advokat degan maʼnolarni anglatadi. Bunga qoʻshimcha tarzda “jury” termini fransuz tilidagi “juree” dan oʻzlashib, oʻzbek tilida sud hayʼati, hakamlar guruhi deb tarjima qilinadi.

Oʻzbek yuridik leksikasi asosan rus tili va ingliz tilidan oʻzlashgan terminlar orqali boyitilgan. Bu jarayon Sovet davri qonunchilik tizini va xalqaro huquqiy standartlar bilan bogʻliq. Qarz soʻzlar koʻpincha morfologik moslashuv va talaffuz oʻzgarishlari orqali oʻzbek tiliga singdiriladi. Namuna tarzida ingliz tilidan oʻzlashgan “contract” termini oʻzbek tilida ham “kontrakt” shaklida ishlatilishini yaʼni shartnoma maʼnosida kelishi kuzatamiz.

Qisqartma usuli bilan yuridik terminlarni hosil qilish

Qisqartma yoʻli (abbreviation / acronym formation) - bu uzun yoki murakkab terminlarni qisqa shaklga keltirish orqali yangi terminologik birlik hosil qilish jarayoni. Yuridik til, ayniqsa normativ-huquqiy hujjatlar, kontraktlar va xalqaro huquqiy matnlarda, koʻplab qisqartmalarni qoʻllash orqali aniq va samarali ifodani taʼminlaydi[3].

Yuridik terminologiyada qisqartmalar bir nechta asosiy shakllarda hosil qilinadi:

1. Akronim (Acronym) - bir nechta soʻzning birinchi harflari yoki boʻgʻinlari asosida hosil boʻladi. Misol:

UN → United Nations (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)

ICC → International Criminal Court (Xalqaro Jinoyat Sud)

ILO → International Labour Organization (Xalqaro Mehnat Tashkiloti)

2. Initialism / Harflar qisqartmasi - har bir soʻzning bosh harfi alohida talaffuz qilinadi.

Misol:

FBI → Federal Bureau of Investigation (AQSh Federal Tergov Boshqarmasi)

UNESCO → United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (BMTning Taʼlim, Fan va Madaniyat Tashkiloti)

3. Sillabik qisqartma (Syllabic Abbreviation) - bir yoki bir nechta soʻzning dastlabki boʻgʻinlari bilan hosil qilinadi. Misol:

Interpol → International Criminal Police Organization

NAFTA → North American Free Trade Agreement

O'zbek tilida qisqartmalar ko'pincha rasmiy va normativ-huquqiy hujjatlarda qo'llanadi. Ular asosan ingliz yoki rus tilidan olingan qarz so'zlardan hosil qilinadi:

OAV→ Ommaviy axborot vositalari

KAA→ Kadastr agentligi

FHDYO→ Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuv iboralari

BP→ Bosh prokratura

JK→ Jinoyat kodeksi

MJK→ Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks

IIB→Ichki ishlar boshqarmasi

Natijalar (Results)

O'tkazilgan lingvistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillaridagi yuridik terminologiya o'ziga xos strukturaviy va semantik xususiyatlarga ega bo'lib, ular turli yasash usullari orqali shakllanadi.

Tadqiqot davomida quyidagi natijalar aniqlandi:

1. Morfologik yasash har ikkala tilda ham eng keng tarqalgan termin hosil qilish usuli hisoblanadi. Ingliz tilida prefiks va suffikslar yordamida terminlar hosil qilinsa, o'zbek tilida bu jarayon asosan suffiksatsiya orqali amalga oshiriladi.

2. Strukturaviy jihatdan yuridik terminlar bir komponentli, ikki komponentli va ko'p komponentli shakllarda uchrashi aniqlandi. Eng ko'p qo'llaniladiganlari ikki va uch komponentli terminlardir.

3. Semantik yasash jarayonida umumiste'mol so'zlarning ma'nosi torayishi yoki kengayishi orqali yangi terminologik birliklar hosil bo'lishi kuzatildi. Bu jarayon yuridik tushunchalarning aniq ifodalanishiga xizmat qiladi.

4. Qarz olish yo'li bilan yasash yuridik terminologiyaning muhim manbai hisoblanadi. Ingliz tilida terminlarning katta qismi lotin va fransuz tillaridan kirib kelgan bo'lsa, o'zbek tilida rus va ingliz tillari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

5. Qisqartma usuli yuridik matnlarning ixchamligi va tezkorligini ta'minlaydigan muhim termin hosil qilish vositasi sifatida aniqlangan.

Xulosa (Conclusion)

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, yuridik terminlar har ikki tilda ham aniqlik, bir ma'nolilik, standartlashganlik va rasmiy uslubga mansublik kabi umumiy terminologik xususiyatlarga ega. Ikkinchidan, terminlarning yasashida morfologik va semantik usullar asosiy o'rin tutsa-da, qarz olish va qisqartma usullari terminologiyaning xalqaro moslashuvini ta'minlaydi. Uchinchidan, ingliz va o'zbek yuridik terminologiyasi o'rtasida o'xshashliklar ko'p bo'lib, bu holat huquqiy tizimlarning global integratsiyasi va terminlarning xalqaro standartlashuvi bilan izohlanadi.

To'rtinchidan, o'zbek tilidagi yuridik terminologiyaning rivojlanishi asosan tashqi tillardan o'zlashuv va ichki lingvistik imkoniyatlar uyg'unligi asosida amalga oshmoqda.

Umuman olganda, yuridik terminlarning yasash usullarini o'rganish huquqiy tilning tizimli rivojlanishini, terminlarning standartlashuvini hamda huquqiy kommunikatsiyaning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cabré, M. T. (1999). Introduction to Terminology Theory. Amsterdam: John Benjamins Publishing.
2. Danilenko, V. P. (1977). Русская терминология. Москва: Наука.
3. G'ulomova, G. (2018). Terminologiya va ilmiy yondashuv. Toshkent: Fan.
4. Hojiyev, A. (2012). O'zbek tilshunosligi terminlari izohli lug'ati. Toshkent.
5. Leichik, V. M. (2009). Терминоведение: предмет, методы, структура. Москва: ЛКИ.
6. Mannobova, L. A. (2024). Ingliz tilidagi turizm terminlari va ularning o'zbek tiliga o'g'irlishi. O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar va Ilmiy Tadqiqotlar, 34, 69–72.
7. Mannobova, L. A., & Hamroqulova, R. I. (2024). Termin va uning o'ziga xos xususiyatlari. Interdiscipline Innovation and Scientific Research Conference; British International Science Conference, 32–37.
8. Rahmatullayev, Sh. (2010). Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. Toshkent: O'qituvchi.
9. Sager, J. C. (1990). Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam: John Benjamins Publishing.
10. Trosborg, A. (1997). Legal Language. Amsterdam: John Benjamins Publishing.
11. oefen.uz, 2025; journals.ssau.ru, 2022
12. Wierzbicka, A. (1997). Understanding cultures through their key words (p. 88).